

O'QUVCHILARDA NUTQ SO'ZLASH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Jakbarova Mahliyo Ibrohimjonovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA. Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-11 sinf o'quvchilarida nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirish bosqichlari, usul va vositalari, shuningdek, ulardan qanday foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar haqida fikr yuritilgan. Nutq so'zlashning dastlabki talablaridan biri sifatida adabiy til me'yorlarini egallash, so'z boyligini oshirish va o'z nutqida o'zgalar fikridan unumli foydalanish masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: so'zlash, nutq so'zlash, gapirish, yozish, tinglab tushunish, so'z boyligi, o'zgalar nutqi, nutq texnikasi, talaffuz ko'nikmasi

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ

Джакбарова Махлиё Ибрагимджоновна,
независимый научный сотрудник Ташкентского государственного
университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Аннотация. В статье рассматриваются этапы, методы и средства развития речевых навыков у учащихся 7-11 классов общеобразовательных школ, а также методические рекомендации по их использованию. В качестве одного из первоначальных требований к разговорной речи рассматривается вопрос овладения нормами литературного языка, увеличения словарного запаса и максимального использования мыслей других в своей речи.

Ключевые слова: говорение, разговорная речь, устная речь, письмо, аудирование и понимание, словарный запас, посторонняя речь, техника речи, навыки произношения

METHODS OF DEVELOPING STUDENTS' SPEECH SKILLS

Dzhabarova Makliyo Ibragimjonovna,
independent researcher at Tashkent State University of Uzbek Language and
Literature named after Alisher Navoi

Annotation. The article discusses the stages, methods and means of developing speech skills in students of grades 7-11 of secondary schools, as well as methodological recommendations for their use. As one of the initial requirements for colloquial speech, the question of mastering the norms of the literary language, increasing vocabulary and maximizing the use of the thoughts of others in one's speech is considered.

Keywords: speaking, colloquial speech, oral speech, writing, listening and understanding, vocabulary, extraneous speech, speech technique, pronunciation skills

Kirish. O'quvchilarda nutq so'zlash ko'nikmasi shakllanishi uchun ularda zarur so'z boyligi bo'lishi zarur, qolaversa, mashq jarayoni ham to'g'ri tashkil etilgan bo'lishi kerak. O'.Usmonova bu masalani hal qilishdagi qiyinchiliklarga shevalarni sabab qilib ko'rsatadi. Tadqiqotchi talaffuz masalasi o'zbek tilida o'rganilmasdan kelinayotganligini ta'kidlaydi va bu borada o'z ishida adabiy talaffuz me'yorlarini belgilash ishlariga birinchi bo'lib qo'l urgan olim F.K.Kamolov hamda professor S.I.Ibrohimovlarning qimmatli fikrlariga tayanadi.

Bu borada H.Nematovning quyidagi fikrlari hozir ham ona tili ta'limi uchun ahamiyatli: "Asrlar davomida insoniyat tomonidan to'plangan barcha til ilmini o'rta maktab o'quvchisiga o'rgatishning iloji va zarurati yo'q. Demak, ona tilidan eng zarur

bilimlarni tanlash asosiy masalalardan biridir.

Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezoni uning foydalilik va amalda qo'llanila olish darajasidir. Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, uni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni ta'minlaydigan bilimlarni tushunamiz".

Adabiy talaffuz va uning me'yorlari masalasi dunyoning rivojlangan mamlakatlari tillarida atroflicha o'rganilganligini kuzatamiz [ingliz, fransuz va b.]. Bu borada jahon tajribasida, jumladan, ingliz tilida nutq so'zlash mashqlardan unumli foydalaniladi

O'zbek tiliga xos bo'lgan ayrim tovushlarning to'g'ri talaffuzini oddiy, an'anaviy mashqlar bilan yetarli darajada o'rgatib bo'lmashligini bugungi o'quvchi, talaba, hatto ayrim katta yoshdagi ziyoli kishilar, xususan, o'qituvchilarning nutqi ham isbotlab turibdi.

G'Hamroyevning ta'kidlashicha, muammoning bir uchi yana o'rta umumta'lim maktablarida ona tili o'qitish masalasiga borib taqaladi. Adabiy talaffuz – madaniyatlik belgisi. O'rta umumta'lim tizimida 5-sinfdan boshlab talaffuzning asosiy birligi hisoblangan nutq tovushlari "Nutq so'zlash" bo'limi tarkibida tizimli o'qitila boshlaydi. "Nutq so'zlash" bo'limi ta'limi taqozosiga ko'ra shu yerda o'quvchilarga nutq tovushlari bilan birga to'g'ri talaffuz hamda imlo qoidalarini singdirish talabi ham qo'yiladi.

O'quvchilarda nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirishning o'ziga xos talablari, amalga oshirish mexanizmi mavjud. Ularni quyidagicha tasnif va tavsiflash mumkin:

Ushbu jarayonlar o'quvchilarning, avvalo, adabiy talaffuz ko'nikmalarini rivojlantiradi, so'z boyligini oshiradi, nutq so'zlashga, taqdimot va targ'ibot qila olishga tayyorlaydi. Mashg'ulotlarda o'quvchining nutqiy ko'nikmalarini hosil qiluvchi asosiy o'quv topshirig'i – bu mashqdir. Topshiriq va savol erishilgan natijalarni baholash, jarayonni tashkil etish va fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga xizmat qiladi.

Matn ustida ishlash uchun beriladigan topshiriqlar mazmuni pragmatik xarakterda bo'lishi lozim, aks holda amaliy ahamiyati bo'lmay, o'quvchining e'tiborini susaytiradi. Har bir bo'lajak notiq, avvalo, o'z nutqidagi talaffuz bilan bog'liq muammolar ustida ishlashi, tinimsiz mashq qilishi kerak. Aks holda, har qanday puxta o'ylangan nutq ham o'z ta'sirchanligini, ahamiyatini yo'qotishi mumkin.

Atrofimizga nazar tashlasak, ilg'or davlatlarning ko'pida ona tilidan ta'lim mazmuni tubdan yangilandi. "Ta'lim mazmuni sirasida o'quvchilarga taqdim etilayotgan bilimlar ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondira olishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka undashi lozim" ligi belgilanadi.

O'quvchilarda ijodkorlikni, mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatish uchun ona tili ta'limining mazmunini tubdan yangilash, o'quv materiallarini zamon ehtiyojiga moslash talab qilindi. Buni amalga oshirishda, tabiiyki, ta'lim vositalari muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunga qadar bir qator maktab "Ona tili" darsliklari yaratildi, lekin ulardagi o'quv materiallarning hammasi ham talabga javob beradimi, degan savol atrofida mulohaza yuritishga to'g'ri keladi. Professorlar Hamid Ne'matov va Askar G'ulomov ona tili ta'limining bugungi holatini, uni yaxshilashda nimalar qilish kerakligini, o'quvchilarga nimalarni o'rgatish lozimligini jiddiy tahlil orqali o'rinli asoslagan edilar.

Umumiy o'rta maktablarning 7-11-sinf o'quvchilarida nutqiy malakalarni kompleks shakllantirishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish yaxshi samara beradi, jumladan:

Taklif etilayotgan pedagogik texnologiya o'qituvchidan yuksak mahorat talab qilmaydi. O'qituvchi faqat boshqarish va yo'naltirish vazifasini bajarsa, bas.

Topshiriqni bajarish uchun o'quvchi o'qish va yozishni bilsa, kifoya.

Topshiriqning bosqichliligi har tomonlama o'ylangan. Birinchidan, ona tili o'quv predmetini matematika, fizika, kimyo kabi murakkab o'quv predmetlari bilan o'zaro munosabatini yana-da yaxshilash, ya'ni mazkur fanlarda masalalar sharti bosqichli ekanligi inobatga olinib, ona tili darslaridagi topshiriqlar strukturasi ham shunga moslash; ikkinchidan, o'quvchining o'zlashtirish imkoniyati, saviyasi kabilar ham nazarda tutilgan. Masalan, uch bosqichli topshiriq bo'lsa, bitta topshiriqni to'liq bajargan "qoniqarli"; ikkitasini to'liq bajargan "yaxshi" va uchalasini ham to'liq bajargan o'quvchi "a'lo" baholanishi ko'zda tutilgan. Bu o'quvchilarni monitoring qilishda o'qituvchiga ham juda qo'l keladi.

O'quvchilarda nutq so'zlashga o'rgatishda quyidagi yangi usullar tavsiya etilmoqda:

1. "Diqqat, eshting!" mazkur usul ommabop mavzuda chiqish qilish uchun o'quvchini nutq so'zlashga tayyorlaydi. Unda hamma yoki jamoa uchun muhim bo'lgan, biror muammoning yechimiga doir taklif shaklidagi ma'lumotlar isboti bilan asosli bayon qilinadi. Bu ko'proq jamoaviy tadbir, tanlov yoki uchrashuvlarda sinf sardori, jamoa boshlig'i sifatida nutq so'zlashga tayyorlaydi.

2. "So'z navbati" Bu usul to'y va boshqa marosim, shuningdek, anjumanlarda o'rta qo'yilgan mavzu yoki masala haqida o'z fikrini ta'sirchan bayon qilish usuli. Nutq so'zlovchi bunday vaziyatda boshqalarnikiga o'xshamagan, o'ziga xos, shahsiy nuqtai nazarlari aks etgan nutq bayon qiladi.

3. "Menda taklif bor" ushbu usulda nutq so'zlovchi hissiyotga berilmasdan, ortiqcha ma'lumotlarni aralashmasdan, o'rta qo'yilgan muammoning yechimiga doir o'z takliflarini minbarga chiqib yoki o'rnidan turgan holda bayon qiladi. Bunda takliflar tartib raqamlari asosida sanaligigi, asosiligi, dolzarbligigi, alohida urg'u bilan bayon qilinganligi, ta'kidlarning mavjudligi inobatga olinadi.

4. "Menga so'z bering" mazkur usulda so'zlovchi badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalangan holda o'zini qiynayotgan muammolar, uning oqibatlarini bayon etishda nutq vaziyatiga qarab maqol, ibora, hikoyat, hadis rivoyat, latifa kabi lisoniy vositalarni qo'llaydi.

5. "Siz kutgan mavzu" bu usul boshqalariga qaraganda erkinroq bo'lib, jamoa oldida ularga ma'lumot, axborot yetkazish, ta'lim-tarbiya berish, ta'sirlantirish, tafakkurini o'stirish maqsadida qo'llaniladi. Bunda ham so'zlovchi o'zbek tilining boy leksik imkoniyatlaridan foydalanadi.

O'quvchilarga bunday topshiriqlar berilganda ularga aforizmlar, donolar hikmatlaridan topib, ularni izohlash, munosabat bildirishga o'rgatish, shu asosda matn yaratish yoki matn tuzishda fikrni asoslash uchun qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Topshiriqqa bunday yondashish darsni samarali tashkil qilish va o'quvchiga ko'proq foydali bilim, ko'nikma va malaka berishga imkoniyat yaratadi.

Bu kabi topshiriqlarni tuzishda oddiy jummalarni tahlil qilishdan ko'ra aforizmlar ustida ishlash foydali ekanligi inobatga olingan. Qolaversa, o'quvchi mashhur kishilarning hayot haqidagi qarashlarini o'rganishga qiziqadi. Eng muhimi, hikmatli so'zlar ayrim o'quvchilarning yashash shioriga ham aylanib boradi.

Mavjud darsliklarda bunday hikmatlar yo'q deb bo'lmaydi. Biroq ular asosida berilgan topshiriqlarni takomillashtirish lozim. Darslikning asosiy vazifasi o'qituvchini, ko'proq o'quvchini yo'naltirish ekan, biz, avvalo, mashqni topshiriqdan farqlab ularning shartlarini o'quvchida nutqiy ko'nikmalarni shakllantira oladigan holatga keltirishimiz zarur. "Matndan unlilarni topib, tavsiflang", "Tilning qanday ijtimoiy ahamiyat kasb etayotganini ayting" kabi to'ntoq topshiriqlar o'quvchini uquvsiz qilib qo'ymoqda. Topshiriq shunchaki tuzilmasligi, puxta o'ylangan, maqsadli, ko'p tomonlama foydali shaklda bo'lsa, belgilangan dars vaqtidan unumli foydalanilgan bo'ladi. Topshiriq birgina ko'nikmani hosil qilishga qaratilgan bo'lsa,

u bugungi kun talabiga to'la javob berishi qiyin. Bir topshiriqni bajarish mobaynida bir nechta ko'nikmani shakllantirish payti allaqachon kelgan. Darslik hamda o'quv qo'llanmalarining aksariyatida mashq va topshiriqlardan unumli foydalanilmaydi. Ya'ni birgina topshiriq bilan kifoyalaniladi.

Bizningcha, bir paytning o'zida bir nechta topshiriq berish samaraliroq natija beradi:

- birinchidan, tildan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi;
- ikkinchidan, maktabda o'qitiladigan boshqa o'quv predmetlari, jumladan, matematika, fizika, kimyo kabilardan masala berilganda o'quvchi qiynalmaydi.

Chunki u ona tili darslarida bu shakldagi muammoli topshiriqqa ko'p duch kelgan va bosqichma-bosqich hal etilishi topshirilgan topshiriqlarni bajarishga odatlangan bo'ladi.

Xulosa shundan iboratki, barcha ta'lim muassasalarida nutq so'zlash malakasi/ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha olib boriladigan mashg'ulotlarning asosiy qismi mashqlardan iborat bo'lishi lozim. Shuningdek, mashq bajarish jarayonlari tizimli, biri ikkinchisini to'ldiradigan bo'lishi kerak. Biz taklif etgan nutq so'zlashga o'rgatish texnologiyasidan nafaqat prezident va ijod maktablari, qolaversa, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda foydalanish mumkin.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Усмонова Ў. Талаффуз маданияти. –Т.: Фан, 1976. – 3-б.
2. Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи. 1996. 9-б.
3. Ҳамроев Ғ. Умумий ўрта таълим тизимида фонетикага доир ўқув материалларининг илмий-методик таъминотини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фал.дри.(PhD) дисс. –Самарқанд. 2019. 147 б.
4. Йўлдошева Д. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури талаблари асосида таълим мақсадини белгилашнинг дидактик асослари.–Т.: Фан, 2006. – 11-б.
5. Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни.–Т.: Ўқитувчи,1995. – 27-б.